



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

*M. M. Mirzayev*

BUYRUQ № *01-2119*

2022-yil "21" yanvar

Toshkent sh.

Universitet hududida talabalarga umumiy o'qatlanish va boshqa turli xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish to'g'risida

Universitet Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Milliy universitetida talabalarga umumiy o'qatlanish va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnomaga" muvofiq universitet bino-inshootlari va hududida umumiy o'qatlanish xizmatini va boshqa turli xizmatlarni ko'rsatuvchi hankorlarni tanlash va faoliyatini tartibga soluvchi ishchi guruhni tashkil etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Universitet hududida hamda bino va inshootlarida talabalarga umumiy o'qatlanish xizmatini va boshqa turli xizmatlar ko'rsatish bo'yicha hankorlikka nomzodlarni (tadbirkorlik subyektlari, yuridik shaxs, xususiy tadbirkor va hokazo) tanlash va ular faoliyatini tartibga solish Universitet Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Milliy universitetida talabalarga umumiy o'qatlanish va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnomaga" asosida tashkil etilsin.

2. Nomzodlar o'rtasida Tanlovni o'tkazish va xizmat ko'rsatish faoliyatini tartibga solish bo'yicha ishchi guruh tarkibi I-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruh majlisida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha hankorlikka nomzodlar taqdim etgan hujjatlar va nomzodlarning salohiyati o'rganiladi hamda ochiq ovoz berish orqali munosib nomzodlarni tanlab ular bilan shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

4. Ishchi guruh tomonidan tavsiya etilgan tadbirkorlik sub'yektlari bilan qonunda belgilangan tartibda uch tomonlama ijara shartnomalari rasmiylashtiriladi.

5. Ishchi guruh tomonidan ijara shartnomalari nazorat qilishi va tartibga solish ishlari "O'zbekiston Milliy universitetida talabalarga umumiy o'qatlanish va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnomaga" asosida amalga oshiriladi.

6. Mazkur buyruq ijrosining nazorati moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor V.Yodgarov zimmasiga yuklatilsin.


Asos: Universitet Ilmiy kengashining 2021 yil 28 dekabrdaagi 6-son yig'ilishida tasdiqlangan "O'zbekiston Milliy universitetida talabalarga umumiy o'qatlanish va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnomaga"

Ko'chirma asliga to'g'ri

nazoratchi



Universitet hududida talabalarga umumiy o'qitilish va boshqa turli xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha ishchi guruh tarkibi



1. N.Norqulov – dotsent o'qituvchi, komissiya raisi;
2. O.Xudoy nazarov – Universitet kasaba uyushmasi raisi, komissiya a'zosi;
3. V.Yodgarov – Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, komissiya a'zosi;
4. Sh.G'ulomov – Korruptsiyaga qarshi kurashish "Komplzens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i, komissiya a'zosi;
5. D.Talipov – dotsent o'qituvchi, komissiya a'zosi;
6. S.Mamasharifov – TF va XB boshlig'i, komissiya a'zosi;
7. U.To'xtayev – universitet yoshlar itifoqi yetakchisi, komissiya a'zosi;
8. G.Yax'yayeva – Huquqshunos-maslahatchi, komissiya a'zosi;
9. H.Tursunqulov – Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi 1-toifali muhandis, komissiya korb'i;
10. X.Javlanov - bosh energetik, komissiya a'zosi;
11. Q.Ulug'murodov- Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi 1-toifali muhandis, komissiya a'zosi;